



OSHQOZONOSTI BEZI SARATONINI TASHXISLASHDA
ULTRATOVUSH TEKSHIRUVINING IMKONYATLARINI
BAHOLASH

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Davolash fakulteti talabasi

Isroilova Gulshoda Dilmurotovna

+998932500124

isroilovagulshoda007@gmail.com

Dolzarbliqi. Oshqozon osti bezi saratoni oshqozon osti bezi hujayralari nazoratsiz ko'paya boshlaganda paydo bo'ladi. Bu saraton hujayralari tananing boshqa qismlariga metastaz berish hususiyatiga ega. Me'da osti bezining xavfli o'smalari (MOBXO') eng agressiv onkologik kasalliklardan biri bo'lib, kech aniqlanishi, tez rivojlanishi va yuqori o'lim ko'rsatkichi bilan tavsiflanadi. Butun dunyo bo'yicha 0,004%-0,012% uchraydi. Global Cancer Observatory (GLOBOCAN) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda butun dunyo bo'yicha ushbu kasallikning 510 992 yangi holati qayd etilgan. 2020 yilda esa me'da osti bezi saratonidan 467 409 (91,5%) bemor vafot etgan, bu kasallikning yuqori letalligini tasdiqlaydi. So'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida kasallanishning barqaror ortib borishi kuzatilmoqda. 1990–2021 yillar oralig'ida yoshga moslashtirilgan kasallanish ko'rsatkichi 5,47 dan 5,96 gacha oshgani aniqlangan

Maqsad. Oshqozon osti bezi xavfli o'smalarining baholashda ultratovush tekshiruvi imkoniyatlarini aniqlash.



Materiallar va usullar. Zamonaviy ultratovush qurilmalari qo'llanilishi me'da osti bezi o'smalariga xos ultratovush semyotik belgilarning aniqlik bilan tavsiflanishiga xizmat qiladi. Qorin bo'shlig'i ultratovush tekshiruvi orqali oshqozon osti bezi fokal lezyonlari aniqlangan 50 nafar bemor tanlab olindi. Tadqiqotga kiritish mezonlari kamida 18 yosh va oshqozon osti bezi saratoni tashxisi qo'yilganlarni o'z ichiga oldi. Tadqiqotdan chiqarish mezonlari 18 yoshgacha bo'lgan yosh, oldingi oshqozon operatsiyasi, homiladorlik yoki laktatsiya davridagilar, oldingi nur terapiyasi yoki kimyoterapiya natijalarini o'z ichiga oldi.

Natija. Ushbu tadqiqotda ro'yxatga olingan bemorlarning o'rtacha yoshi $62,32 \pm 7,82$ yoshni tashkil etdi, ularning 72% (n=36) erkak va 28% (n=14) ayol edi. Tadqiqot ishtirokchilari orasida 64% (n=32) chekuvchilar edi. Tadqiqot davomida Transabdominal UTT ning past chastotali konveks (curvilinear) datchikdan foydalanildi (chastota 2-5 MHz). O'rganilgan bemorlar orasida kuzatilgan turlarning 96% (n=48) ni kanal adenokarsinomasi tashkil etdi. Adenoskuamoz karsinoma holatlarning 4% (n=2) ni tashkil etdi.

Xulosa. Oshqozonosti bezi saratoni kundan kunga ommalashib bormoqda. Uni erta aniqlash va tashxislash muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu masalani osonlashtirishda ultratovush tekshiruvlari oshqozon osti bezi saratonini tashxislash uchun samarali usul bo'la oladi.